

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA” ASARIDA BA’ZI  
BIR HUDUDLARNING TARIXIY GEOGRAFIYASINING NOMLANISHI  
(FARG‘ONA VODIYSI MISOLIDA )**

NavDKTU katta o‘qituvchisi  
Ishankulova Gulshan Ravshanovna  
Talaba:  
Muzaffarov Jahogir  
5-23 Logistka guruhi

**Annatatsiya:** “Boburnoma”da O‘rta Osiyoning juda boy tarixiy-toponimik joy nomlari va geografik atamalar to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud. Sharq mamlakatlarida dunyoning yetti qismiga, ya’ni iqlimga bo‘linishi manbalarda tilga olinadi. Asarda tarixiy voqealar to‘g‘risida keltirilgan xabarlar orasida keltirilgan geografik joylarning nomlari, ularning joylashgan o‘rnini,

**Kalit so‘zlar:** Iqlimga, joylari, viloyat, tarixda, geografik, o‘simpliklari, daryolar, shifobaxsh.

“Boburnoma”da O‘rta Osiyoning juda boy tarixiy-toponimik joy nomlari va geografik atamalar to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud. Xususan, Farg‘ona viloyatining geografik o‘rnini tasnifiga bag‘ishlangan o‘rinda “Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimindindur. Olmoliq va Olmotu va Yangi kim, kutublarda Tarozkent bitirlar, mo‘g‘ul va o‘zbek jihatdin bu tarixda buzulubtut, aslo ma’mura qolmabdur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon”, deb ta’rif bergen .

Demak, yuqorida Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimda joylashganligi e’tirof qilindi. “Iqlim” so‘zi aslida yunoncha “klima” so‘zidan olingan bo‘lib, “yer yuzasining quyosh nurlariga nisbatan qiyaligi” degan ma’noni anglatadi. Shunday qiya joylashganligi sababli yer yuzining turli joylari turlicha isiydi, natijada tabiatи har xil bo‘ladi. Sharq mamlakatlarida dunyoning yetti qismiga, ya’ni iqlimga bo‘linishi manbalarda tilga olinadi. Dunyoning yetti iqlimi g‘arbdan sharqqa qarab, gorizontal ravishda paralellar bo‘ylab cho‘zilgan turli geografik zonalardan iborat. Beshinchi iqlimga esa Shimoliy Ispaniya, Shimoliy Rum, Armaniya, Darband, Kaspiy dengizi, Xorazm, Buxoro, Sug‘d, Shosh, Farg‘ona, Isfijob va Koshg‘ar kirgan.

“Boburnoma”da “Ma’mura” so‘zi ishlataladi. Aslida “yetti iqlim” ichidagi odamlar yashaydigan obod joylar “ma’mura” deb atalgan. Zero, Farg‘ona odamlar yashashlari uchun har tomonlama juda qulay va serob joy bo‘lgan. “Boburnoma”da Farg‘onaning qasabalari, uning tabiatи, bog‘lari, mevalari, polizlari, tokzorlari, daryolari to‘g‘risida quyidagi ma‘lumotlar berilgan: “Yetti pora qasabasi bor; beshi Sayhun suyining janub tarafida, ikki shimoli jonibida, Janubiy tarafidagi qasabalar bir Andijondurkim, vasatta voqe bo‘lubtut, Farg‘ona viloyatining poytaxtidur. Boburning geografiya qonuniyatlarini to‘g‘risida yozar ekan, H. Hasanov Bobur geografiyasining ba’zi xususiyatlarini quyidagicha keltirib o‘tadi. Bobur har bir territoriyani ma‘lum bir tartibda tasvirlagan. Avvalo, joyning geografik o‘rnini ko‘rsatgan, so‘ngra iqlimi va qishloq xo‘jaligi, o‘simpliklari, qazilma boyliklari, hayvonoti va aholisini ta’riflagan.

Zahiriddin Muhammad Bobur asarda Kanibodom qasabasining geografik joylashgan joyi, yetishtiriladigan mevalarini boshqa mamlakatlarga olib borib sotishlari to‘g‘risida ham ma‘lumotlar berilgan. Asarda joylarning tabiiy sharoiti, ob-havosiga ham e’tibor qilingan. Masalan, “Xo‘jand bila Kandibodom orasida bir dasht tushubtur. Hamisha bu dashtta yel borur. Xo‘jandg‘akim g‘arbidur, doyim mundin yel kelur: tund yellari bor”.

Demak, Boburga havo oqimlarining g‘arbdan sharqqa qarab esishi ham ma‘lum bo‘lgan. “Boburnoma”da tog‘ va dovonlarni qor bosishi haqida bir necha marta aytib o‘tilgan. “Boburnoma”da gidrografiyyaga – daryo va ko‘llarga oid ma‘lumotlar ham ko‘p. Daryolarning chuqurligi, muzlashi, oqim rejimi, necha tegirmon suv oqishi, suv manbalari asarda batafsil ta’riflangan. Farg‘ona viloyatining ichidan oqib o‘tadigan Sayhun daryosi, Xo‘jand suyi, Andijon suyi, Axsi suyi iboralari ko‘p ishlatilgan. Asarda tarixiy voqealar to‘g‘risida keltirilgan xabarlar orasida keltirilgan geografik joylarning nomlari, ularning joylashgan o‘rni, unga tutash hududlar sanab o‘tilganki, tarixiy jarayonlarning qayerda sodir bo‘layotganligi haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lasiz. Xususan, fikrimizning dalili sifatida 1502–1503- yillardagi voqealarni ta’riflar ekan, “Bu ayyomda atrof va javonibni necha qatla cherik borib choptilar. “Boburnoma” muhim terminologik manba bo‘lib, unda so‘z va nomlarga katta e’tibor qaratilgan. Asarda O‘rtta Osiyo xalqlari ishlatgan geografik atamalar ko‘p uchraydi. H. Hasanov “Boburnoma”da ishlatilgan quyidagi atamalarni ta’kidlaydi: “guzar – kichik, daryodan o‘tadigan joy; jilg‘a – kichik soy, daryocha; nayshakar – shakarqamish; pushta – tepa, balandlik, qir; tangi – dara, tog‘ oralig‘idagi yo‘l, chuqur daryo vodiysi; uchma – chuqur jar yoqasi, tik yonbag‘ir, ovring; o‘lang – o‘tloq yer, keng maydon; choqar – toshqo‘rg‘on; yayoloq – yaylov, keng dala”

Boburning o‘z o‘lkasi geografiyasini yoritishdagi xizmatlari benihoya kattadir. “Boburnoma”ga asoslanib, Farg‘ona viloyatining sxematik kartasi tuzilgan. Kartada Farg‘ona viloyatining qir atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan, o‘rtasida Sirdaryo (Sayhun, Xo‘jand suyi) oqib o‘tishi, viloyatda 7 ta yirik shahar bo‘lganligi, beshtasi Sayhun suvining janub tomonida, ikkitasi esa shimoli janub tomonida joylashganligi ko‘rsatiladi. “Boburnoma”da karvon yo‘llari, xususan, Xitoy bilan bo‘ladigan savdo munosabatlari Farg‘ona orqali olib borilganligi haqida qimmatli ma‘lumotlar berilgan. Masalan, “Koshg‘ar va Farg‘ona va Turkiston va Samarqand va Buxoro va Balx va Hisor va Badaxshondin korvon Kobulg‘a kelurlar. Xurosondin korvon Qandahorga kelur.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari Farg‘ona vodiysining tarixiy geografiysi, joy nomlari, iqlimi, tabiat, dehqonchiligi, bog‘lari, tog‘lari, qazilma boyliklari bo‘yicha muhim ma‘lumotlar bera oladigan nodir va qimmatli manba sifatida katta ahamiyatga egadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – B. 6–8.
- 2 Hasanov H. Sayyoh olimlar. – B. 196.
3. SHARQSHUNOSLIK / VOSTOKOVEDENIYE / ORIENTAL STUDIES 2018, № 4

4.R.ALIMOVA, ToshDSHI. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Farg‘ona vodiysining tarixiy geografiyasi nomlanishi maqolasi.